



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOLOGIK SIYOSAT VA
FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY BURCHLARI**

Abduvaxobova Shoiri Lochin qizi

Andijon davlat universiteti filologiya va tillarni o'qitish fakulteti talabasi

E-mail: abduvakhobova24@gmail.com

Annotatsiya: Maqola O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 62-moddasida belgilangan fuqarolarning atrof-muhitga munosabati mavzusi hamda O'zbekiston Respublikasining ekologiya sohasidagi qonunlari, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha davlat siyosati, fuqarolarning ushbu sohadagi huquq va burchlari, shuningdek, ekologik qonunbuzarliklarga qarshi choralarning huquqiy mexanizmlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Atrof-muhit muhofazasi, ekologik qonunchilik, ekologik muammolar, Orol dengizi himoyasi, Xalqaro ekologik tashkilot va hujjatlar.

Annotation: The article covers the issue of citizens' attitude to the environment, as established in Article 62 of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, as well as the laws of the Republic of Uzbekistan in the field of ecology, state policy on environmental protection, the rights and obligations of citizens in this area, as well as legal mechanisms for combating environmental violations.

Asosiy qism

Fuqarolik burchlari ichida ularning atrof-muhitga munosabati alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 62-moddasida shunday belgilangan: "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar". Atrof-muhit muhofazasida har bir insonning roli ahamiyatli hisoblanadi.

O'zbekiston ekologik qonunchilik siyosatida quyidagi muhim masalalar belgilab o'tilgan: Chiqindilarni qayta ishlash: Plastik va chirimaydigan mahsulotlarni qayta ishlab, foydalanishga yaroqli mahsulotlar sirasiga o'tkazish.

Innovatsiyalar: Ekologik startup loyihalarni qo'llab-quvvatlash va ekologiyani asrab-avaylash maqsadida turli challenge'lar tashkil etish.

Energiya tejamkorligi: Energiyani tejash maqsadida qayta tiklanadigan energiya manbalarini kengaytirish.

Ekologik ta'lim: Aholi, ayniqsa yoshlar orasida ekologik anjumanlar o'tkazish va ta'lim muassasalarida ekologiya fanlarini joriy etish.

Konstitutsiyaning 68-moddasida fuqarolarning yer, yerosti boyliklari, suv, o'simlik hamda boshqa tabiiy resurslarni umummilliy boylik hisoblab, ulardan oqilona foydalanishlari davlat muhofazasida ekanligi alohida aytib o'tilgan. Shuningdek, 1992-yil 9-dekabrda "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun qabul qilingan bo'lib, uning 20-moddasi atmosfera havosidan foydalanish shartlarini belgilaydi.

Ekologik muammolar va Orol dengizi





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Inson faoliyati natijasida tabiatning buzilishi bir qancha ekologik muammolarga, jumladan havoning ifloslanishi, suv resurslarining kamayishi, tuproq eroziyasi va iqlim o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. O'zbekistondagi eng katta fojia — Orol dengizi muammosidir. 1960-yillardan boshlab dengiz maydoni 90% ga kamaygan bo'lib, uning qurishi natijasida tarqalayotgan tuz va zaharli moddalar inson sog'ligiga hamda tuproq unumdorligiga jiddiy zarar yetkazmoqda.

Xalqaro ekologik hamkorlik

Ekologik xavfsizlikni ta'minlash maqsadida 1948-yilda "Tabiat va tabiiy resurslarni muhofaza qilish ittifoqi" (IUCN) tashkil etilgan. Uning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

Hayvon va o'simlik turlarini saqlash.

"IUCN Red List" orqali xavf ostidagi turlarni ro'yxatga olish.

Davlatlarga ekologik loyihalarni yo'lga qo'yishda maslahatlar berish.

Shuningdek, BMTning Atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP) 1972-yilda tashkil topgan bo'lib, uning shiori "Atrof-muhit taraqqiyot manfaati uchun" deb nomlanadi. 2015-yilda imzolangan Parij kelishuvi esa iqlim o'zgarishi oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan.

Xulosa

Tabiatni asrab-avaylash har bir fuqaroning konstitutsiyaviy va axloqiy burchidir. Tabiat inson hayotining ajralmas qismi bo'lib, unga jiddiy qaralmasa, kelajak avlod uchun tabiiy boyliklar yo'qolishi muqarrar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish - Buxoro 2022.
3. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish – Termiz 2008.
4. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi - Toshkent.